

**ABDULLA QAHHORNING "O'G'RI" HIKOYASIDAGI MAQOL
VAmFRAZEOLOGIZMLARNING AHAMIYATI VA ISHLATILISHI**

NE'MATOVA ZUHRA ALIBEK QIZI

**TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI NAMANGAN
FILIALLI O'ZBEK TILI VA ADABIYOT YO'NALISHI 3-BOSQICH
TALABASI**

ILMIY RAHBAR: DARVESH OV IBROHIM

Annotatsiya; Maqolada Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasidagi maqol va frazeologizmlarning ma'no va mazmun mohiyati ochib beriladi va ularga ta'rif keltiriladi.

Kalit so'zlar; maqol, frazeologizmlar, "mushuk tekinga o'tobga chiqmaydi", "uni begim deguncha kishining beli sinadi", "otning o'limi itning bayrami".

Adabiyotimizning yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Qahhor 1907-yili 17-sentabrda Qo'qon shahrida tavallud topgan. Temirchi usta oilasida dunyoga kelgan otasining kasbi ham aynan shu bo'ladi. Zamon o'g'rigidan adib oilasi bilan Farg'ona vodiysi bo'ylab qishloqma-qishloq ko'chib yurishga majbur bo'ladi. Oqibatda Abdulla «Ko'chmanchi», «Kelgindi» degan laqablarni ham olganligini ko'rishimiz mumkin. U oilada tug'ilgan o'n boladan tirik qolgan yagona farzand bo'ladi. O'z ijodini 1924-yildan boshlagan. 1972-yilda Toshkentga kelib «Qizil O'zbekiston» gazetasida ishlaydi. O'qishiga to'xtaladigan bo'lsak O'rta Osiyo Davlat universitetining Pedagogika universitetida ta'lim oladi. Ilk bor «Mushtum» jurnalida qator feleton va hikoyalari bosilgan. Abdulla Qahhorning «Kampirlar sim qoqdi», «O'g'ri», «Asror bobo», «Oltin yulduz» va shu kabi boshqa bir qator asar va hikoyalari bor. Adibning hikoyalari insondagi ijobiy va salbiy jihatlar uning sifatlariga kiruvchi baxillik, ochko'zlik, manmanlik va shu bilan birga mana shu salbiy jihatlarni o'rnini bosuvchi, ba'zi yo'ldan adashgan insonlarni to'g'ri yo'lga

boshlovchi haqgo'ylik, insof, diyonat, yaxshilik, sadoqat kabi sifatlar bilan ham ulug'lanadi

Maqol va frazeologizm o'zi nima?

Maqol bu-xalq donishmandligi ifodasi bo'lgan, hayotiy tajribaga asoslangan qisqa va mazmunli gap. Maqollarimizda Ota bobolarimizning boy merosiy hikmatlari, fazilatlarini bayon etiladi

Frazeologizm ikki va undan ortiq so'zning barqaror birikmasi, ularning umumiy ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nsidan boshqacha bo'ladi. Bundan tashqari biz o'rganganimiz bo'yicha frazeologizm ibora deb ham yuritiladi. Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasi o'zi nima haqida. Bilamizki adib ushbu hikoyani o'tmishdan deb yozib qo'ygan. Ya'ni o'tmish hayotimizni aks ettirgan hikoya bo'lib o'tmishda qanday muammolar bo'lgan, qanday amaldorlar bo'lgan, o'g'ri deganda aynan kim nazarda tutilgan ana shular haqidagi hikoyadir degan ma'noda keladi, ya'ni ot o'lganda uning go'shti. Hikoyada uchratadigan birinchi maqol va epigraff sifatida olingan «O'ning o'limi itning bayrami» bu maqol aynan kimningdir qiyinchiligi yoki kimningdir muvaffaqiyatsizligi boshqalar uchun muvaffaqiyat yoki naf keltirishi mumkinmi deb itlar yeyishadi degan ma'noda.

«Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin» aytish mumkinki ushbu maqolni davriy maqol ya'ni o'sha davr, payt uchun muhim bo'lgan maqol. Ehtimol hozir bu maqol darajasiga ko'tarilmagan ham bo'lardi ya'ni o'sha paytda hokim ular uchun eng kerakli ijodkor bo'lgan chunki oilaning asosiy kasbi dehqonchilik bilan shug'ullangan va bu kasbda (qo'sh haydash) yerni haydash uchun bevosita hokimdan foydalanishgan.» Uy qilish bitta chopni tiklab qoysang uy bolar lekin bitta ho'kizni olaman desang ancha vaqtgacha qozonni suvga solib qo'yishingga to'g'ri keladi»- deydi muallif ovqat yeya olmasan bitta ho'kizga pul yig'aman deb ancha vaqt och qolasan. Bu birliklarning hikoyada aks etishi: Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi.-Go'yo u ko'chaga chiqsa bas ho'kiz topiladi. Bu «xudo yallaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi... Kechqurun Qobil bobo aminning

oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki uni begim deguncha kishining beli sinar ekan ... Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo gorda bir nima deya oladimi «o'ynashmagil arbob bilan –seni urar har bob bilan» kabi maqol va iboralar ishlatilgan

naqd jumlasida bu yerda birinchi ma'nosi-»naqd «aniq, hal bo'lgan, tayyor,; naqd pul ma'nosida

Ikkinchi manosi ya'ni paronimi «naq»xuddi, aniq, ayni o'zginasi degan ma'noda qo'llanadi

«Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi» bilamizki; mushuklar kun chiqqan payti oftobga chiqib toblanishni yaxshi ko'rishadi va bu yerda bu hodisa majoziy ma'noda ishlatilgan ya'ni hech kim biror ishni ya'ni aynan amaldorlar tekinga shunchaki qilib berishmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki mushuk orqali hikoyadagi amaldorlar tekinga hech qanday xizmatni bajarib bermaydi degan ma'noda.

«Uni begim deguncha kishining beli sinadi» bu yerda bek yana amaldor ma'nosida kelgan va uni begim deguncha bu Orinda osha amaldorni o'ziga loyiq munosib deb oylagan darajada xurmat qilguncha inson ancha mehnat, sarf –harajat ketkizadi degan ma'noni tushunamiz.